LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

GLOBAL TA‘MINOT ZANJIRLARIDA MAJBURIY MEHNAT UCHUN KORPORATIV JAVOBGARLIK MODELLARI VA ULARNING O‘ZBEKISTON EKSPORTCHILARIGA TA‘SIRI

Xalilov Shaxzod
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
Elektron pochta: shaxzodvip@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada majburiy mehnatga qarshi kurashda tadbirkorlik subyektlarining mas‘uliyatini tartibga solish bo‘yicha xorijiy davlatlar va Yevropa Ittifoqi tajribasi hamda uning milliy eksport uchun huquqiy oqibatlari ko‘rib chiqildi. Tadqiqotda integrativ adabiyotlar tahlili, qiyosiy-huquqiy va formal-yuridik usullar hamda paxta sektori bo‘yicha XMT monitoringi ma‘lumotlariga asoslangan aniq holatni o‘rganish usuli qo‘llanildi. Tartibga solishning uchta modeli, ya‘ni shaffoflik, majburiy tegishli tekshiruv va bozorga kirishni cheklash modellari ajratildi va ularning eksportchi korxonalarga ta‘sir kanallari aniqlandi. “Omnibus I” paketi Direktiva qamrovini toraytirgan bo‘lsa-da, uning talablari shartnomaviy kafolatlar orqali yetkazib beruvchilarga uzatilishi belgilandi. 2024/3015-son Reglament mahsulot va tarmoq darajasida ta‘sir ko‘rsatgani sababli eng jiddiy xavf tug‘dirishi asoslandi. Milliy qonunchilikda korxonalarning tegishli tekshiruv majburiyati, jabrlanuvchilarga kompensatsiya va mehnat inspeksiyasi vakolatlari bilan bog‘liq bo‘shliqlar aniqlandi. Tegishli tekshiruvni uch bosqichda joriy etish, paxta-to‘qimachilik sektorida kuzatuvchanlik reyestrini yaratish va Yevropa Komissiyasi bilan hamkorlik uchun milliy muvofiqlashtiruvchi organni belgilash taklif etildi. Natijalardan qonun ijodkorligida, XMT nazorat organlariga hisobotlar tayyorlashda hamda korxonalarning ichki muvofiqlik tizimlarini shakllantirishda foydalanish mumkin.*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Kalit so‘zlar: *inson huquqlari bo‘yicha tegishli tekshiruv; kuzatuvchanlik; 2024/3015-son Reglament; XMTning 29-son Konvensiyasi; paxta-to‘qimachilik sektori; GATTning XX moddasi.*

МОДЕЛИ КОРПОРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРИНУДИТЕЛЬНЫЙ ТРУД В ГЛОБАЛЬНЫХ ЦЕПОЧКАХ ПОСТАВОК И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТЁРОВ УЗБЕКИСТАНА

Халилов Шахзод

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Электронная почта: shaxzodvip@gmail.com

Аннотация. В статье рассмотрен опыт зарубежных государств и Европейского союза по регулированию ответственности субъектов предпринимательства в сфере борьбы с принудительным трудом и его правовые последствия для национального экспорта. В исследовании применены интегративный анализ литературы, сравнительно-правовой и формально-юридический методы, а также метод кейс-стади хлопкового сектора на основе данных мониторинга МОТ. Выделены три модели регулирования (прозрачности, обязательной надлежащей проверки и ограничения доступа на рынок) и выявлены каналы их влияния на предприятия-экспортёры. Установлено, что, несмотря на сужение сферы действия Директивы пакетом «Омнибус I», её требования передаются поставщикам через договорные гарантии. Обосновано, что Регламент 2024/3015 создаёт наиболее серьёзный риск, поскольку действует на уровне

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz



продукции и отрасли. Выявлены пробелы национального законодательства, связанные с обязанностью предприятий проводить надлежащую проверку, компенсацией жертвам и полномочиями трудовой инспекции. Предложено внедрить надлежащую проверку в три этапа, создать реестр прослеживаемости в хлопково-текстильном секторе и определить национальный координирующий орган для сотрудничества с Европейской комиссией. Результаты могут быть использованы в законотворчестве, при подготовке докладов для контрольных органов МОТ и при формировании внутренних систем комплаенса предприятий.

Ключевые слова: надлежащая проверка в области прав человека; прослеживаемость; Регламент 2024/3015; Конвенция МОТ № 29; хлопково-текстильный сектор; статья XX ГАТТ.

CORPORATE LIABILITY MODELS FOR FORCED LABOUR IN GLOBAL SUPPLY CHAINS AND THEIR IMPACT ON UZBEK EXPORTERS

Khalilov Shakhzod

Master's student, Tashkent State University of Law

E-mail: shaxzodvip@gmail.com

Abstract. The article examines foreign and European Union regulation of business responsibility for forced labour and its legal consequences for national exports. The study applies an integrative literature review, comparative and formal legal methods, and a case study of the cotton sector based on ILO monitoring data. It distinguishes three regulatory models, namely transparency, mandatory due

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

diligence and market-access restriction, and identifies the channels through which they affect exporting companies. Although the Omnibus I package narrowed the Directive, its requirements still pass to suppliers through contractual assurances. Regulation 2024/3015 creates the most serious risk because it operates at product and sector level. The study identifies gaps in national legislation concerning corporate due diligence duties, compensation for victims and the powers of labour inspectors. It proposes introducing due diligence in three stages, creating a traceability register for the cotton-textile sector and designating a national coordinating body for cooperation with the European Commission. The findings can support law-making, the preparation of reports to ILO supervisory bodies and the design of corporate compliance systems.

Keywords: human rights due diligence; traceability; Regulation 2024/3015; ILO Convention No. 29; cotton-textile sector; GATT Article XX.

KIRISH. Majburiy mehnatni taqiqlash xalqaro huquqning eng barqaror normalaridan biridir. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning 1930-yilgi 29-son Konvensiyasi majburiy mehnatni shaxsdan biror jazo tahdidi ostida talab qilinadigan va u ixtiyoriy ravishda bajarishni taklif qilmagan har qanday ish yoki xizmat sifatida ta‘riflaydi [1]. 2014-yilgi Bayonnoma davlatlar zimmasiga majburiy mehnatning oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va ularga kompensatsiya olish imkonini berish, shuningdek davlat va xususiy sektorning tegishli tekshiruvini qo‘llab-quvvatlash majburiyatini yukladi [2]. Shunga qaramay, XMT, “Walk Free” tashkiloti va Xalqaro migratsiya tashkiloti baholariga ko‘ra, 2021-yilda dunyoda 27,6 million kishi majburiy mehnatga duchor bo‘lgan, bu holatlarning 86 foizi esa xususiy sektorda sodir etilgan [3]. Shu sababli BMT Inson huquqlari kengashi 2011-yilda ma‘qullagan Biznes va inson huquqlari

bo‘yicha rahbariy tamoyillar korxonalardan inson huquqlarini hurmat qilishni va buning asosiy vositasi sifatida tegishli tekshiruv (due diligence) o‘tkazishni talab qiladi [4].

ASOSIY QISM (MUHOKAMA VA NATIJA). Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillardagi xalqaro adabiyot majburiy mehnatni global ta‘minot zanjirlarining tuzilishi bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin qiladi. G. LeBaron ta‘minot zanjirlaridagi majburiy mehnatning ildiz sabablari aniq va takrorlanuvchi qonuniyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi [5]. M. Wilhelm va hammualliflar auditga asoslangan muvofiqlik boshqaruvining majburiy mehnatga qarshi samarasizligini qayd etib, ishchilar huquqlari tashkilotlari kabi “ijtimoiy vositachilar”ning rolini tadqiq qiladi [6]. S. Linn ham transmilliy korxonalarni an‘anaviy audit modellaridan ishchilar ishtirokiga asoslangan strategiyalarga o‘tishga chaqiradi [7]. J.A. Brown va hammualliflar tibbiy qo‘lqoplar ta‘minot zanjiri misolida ishlab chiqaruvchi, migrantlarni yuboruvchi va tartibga soluvchi davlatlar rollarining o‘zaro ta‘sirini tahlil qilgan [8].

Korporativ javobgarlikni tartibga solish vositalariga oid adabiyot ham tez kengaymoqda. M.A. Islam va C.J. Van Staden Buyuk Britaniyaning Zamonaviy qullik to‘g‘risidagi qonunidagi shaffoflik talablariga nisbatan qullikka qarshi faollarning ishonchi past ekanini aniqlagan [9]. N. Bueno va C. Kaufmann Shveytsariyada majburiy tegishli tekshiruvga oid xalq tashabbusi rad etilganidan keyin nizoli minerallar va bolalar mehnati bo‘yicha hisobot berish va tegishli tekshiruv majburiyatlari qabul qilinganini ko‘rsatgan [10]. B. Choudhury majburiy tegishli tekshiruv to‘g‘risidagi qonunlar foydali, ammo yetarli bo‘lmagan vosita ekanini asoslaydi, chunki ko‘plab muammolarning ildizi korporativ huquqning tuzilmaviy elementlarida yotadi [11]. J. Harrison esa tegishli tekshiruv amaliyoti

noaniq va kontekstga bog‘liq ekanini hamda uning xarajatlari ishtirokchilar o‘rtasida notekis taqsimlanishi xavfini qayd etadi [12].

Yevropa Ittifoqi (YeI)ning korporativ barqarorlik sohasidagi tegishli tekshiruv to‘g‘risidagi Direktivasi alohida tadqiqotlar obyektiga aylandi. N. Bueno, N. Bernaz, G. Holly va O. Martin-Ortega uni birinchi mintaqaviy tegishli tekshiruv qonunchiligi va a‘zo davlatlar o‘rtasidagi siyosiy murosa sifatida baholab, uning YeIdan tashqaridagi oqibatlariga e‘tibor qaratgan [13]. S. Velluti Direktivaning tikuvchilik sanoatidagi ishchilar huquqlarini yaxshilashga qo‘shadigan hissasini baholagan [14], J. Salminen esa Direktivaning tegishli tekshiruv va javobgarlik qoidalarini “Omnibus” jarayonidagi o‘zgarishlar bilan birga qiyosiy tahlil qilgan [15].

Majburiy mehnat ishtirokida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni taqiqlash to‘g‘risidagi YeI Reglamentiga bag‘ishlangan ishlarda A. Eustace uni xalqaro mehnat standartlari uchun “Bryussel effekti”ni ishga solish vositasi sifatida ko‘radi [16]. C. Martínez San Millán bunday bir tomonlama chora GATT 1994ning XX moddasidagi istisnolar doirasiga kirishi va o‘zboshimchalik bilan kamsitishga yo‘l qo‘ymasligi lozimligini ta‘kidlaydi [17]. A. Tyc va R. Siuciński Reglamentni qiyosiy, mehnat va ma‘muriy-protsessual huquq nuqtai nazaridan baholagan [18]. H.-K. Jeong va S.-H. Park Reglament mahsulotga oid mehnat yozuvlarini yuritish bo‘yicha mustaqil majburiyat yuklamasligini ko‘rsatib, mahsulotning kelib chiqish yo‘lini hujjatlashtirish (provenance) va mehnat sharoitini aynan shu mahsulotga bog‘lash (attribution) tushunchalarini farqlagan [19].

O‘zbekiston tajribasi xalqaro adabiyotda davlat tomonidan yuklangan majburiy mehnat misolida o‘rganilgan. D. McGuire va K. Laaser paxta sektoridagi davlat tomonidan tashkil etilgan majburiy mehnat amaliyotlarini va ularning

insonlar imkoniyatlariga ta‘sirini tahlil qilgan [20]. S. Schaefer va J. Hauge Xitoy va O‘zbekiston paxtasi misolida transmilliy korporatsiyalar savdo hajmi va foydasi xavf ostida qolganda majburiy mehnatni tugatishga kamroq intilishini aniqlagan [21]. A. Zenz O‘zbekistonda 2021-yilgacha saqlangan paxta terimidagi majburlashni Shinjon-Uyg‘ur avtonom rayoni bilan qiyoslab, davlat homiyligidagi majburiy mehnatni XMTning statik indikatorlari bilan to‘liq qamrab olib bo‘lmasligini ko‘rsatgan [22], keyingi ishlarida esa uni o‘lchash usullarini takomillashtirishni taklif qilgan [23; 24].

Milliy yuridik fanda majburiy mehnatga oid xalqaro standartlarning implementatsiyasini J.A. Rasulov dissertatsiya darajasida tadqiq etgan [25]. O. Sulaymanov va J. Rasulov milliy mehnat, ma‘muriy va jinoyat qonunchiligini XMTning 29 va 105-son konvensiyalari bilan qiyoslagan [26]. Masalaning ayrim jihatlari Q.M. Usmanov [27], K. Nigmatov [28] va X. Mahmudjonova [29] ishlarida yoritilgan. Biroq bu tadqiqotlar asosan davlat darajasidagi majburiyatlarga qaratilgan, YeIning 2024-yildan keyin qabul qilingan hujjatlari va ularning milliy eksportchilarga ta‘siri esa kompleks tahlil qilinmagan. Xorijiy adabiyotda esa korporativ javobgarlik vositalari batafsil o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning yetkazib beruvchi davlat qonunchiligiga ta‘siri kam yoritilgan.

Maqolaning maqsadi global ta‘minot zanjirlarida majburiy mehnat uchun korporativ javobgarlikni tartibga solish modellarini tavsiflash, ularning O‘zbekiston eksportchilariga ta‘sir kanallarini aniqlab olish hamda milliy qonunchilikni moslashtirish yo‘nalishlarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning normativ bazasini uch guruh manbalar tashkil etdi. Birinchi guruhga XMTning 29-son Konvensiyasi va 2014-yilgi Bayonnomasi, BMT Rahbariy tamoyillari hamda Iqtisodiy hamkorlik va

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ning 2023-yilda yangilangan Mas‘uliyatli biznes yuritish bo‘yicha rahbariy tamoyillari [30] kiradi. Ikkinchi guruhni Buyuk Britaniya [31], Fransiya [32], Germaniya [33] va AQSh [34; 35] qonunchiligi, YeIning 2024/1760-son Direktivasi [36], uni o‘zgartirgan 2026/470-son Direktiva [37], 2024/3015-son Reglament [38], Yevropa Komissiyasining Reglamentni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomasi [39] hamda GATT 1994 [40] tashkil etdi. Uchinchi guruhga O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi [41], Jinoyat kodeksi [42], XMTning paxta terimi monitoringi natijalari [43] va AQSh Davlat departamentining odam savdosi to‘g‘risidagi ma‘ruzasi [44] kiritildi. Muallif normativ materiallarni 2026-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra EUR-Lex, XMT NORMLEX va Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi (lex.uz) rasmiy portallaridan oldi.

Muallif ilmiy adabiyotlarni ScienceDirect, SpringerLink, DOAJ va Crossref ma‘lumotlar bazalarida “forced labour”, “supply chain”, “human rights due diligence”, “forced labour regulation” va “Uzbekistan cotton” kalit so‘zlari bo‘yicha qidirdi. Tanlov mezonlari quyidagilardan iborat bo‘ldi: 2021–2026-yillarda ingliz tilida chop etilgan; ekspert taqrizidan o‘tgan; ochiq kirishda mavjud; DOI identifikatoriga ega. Mezonlarga javob bergan nashrlardan mavzuga bevosita aloqador 20 ta maqola tahlilga kiritildi va ular to‘rt tematik yo‘nalish bo‘yicha guruhlandi: ta‘minot zanjirlarida majburiy mehnatni boshqarish; shaffoflik va tegishli tekshiruv qonunchiligi; savdo cheklovlari; davlat tomonidan yuklangan majburiy mehnat va O‘zbekiston tajribasi.

Adabiyotlarni tahlil qilishda muallif integrativ tahlil usulini qo‘lladi: bu usul turli fan sohalaridagi manbalarni tanqidiy baholash va sintez qilish orqali yangi tahliliy asos yaratish imkonini beradi [45]. Meta-tahlil qo‘llanilmadi, chunki

Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

yuridik manbalar statistik birlashtirish uchun zarur bo‘lgan umumiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga ega emas. Qiyosiy-huquqiy tahlil to‘rt mezonga tayandi: 1) qamrov (qonun tatbiq etiladigan korxonalar doirasi); 2) majburiyat mazmuni (axborot berish, tegishli tekshiruv jarayoni yoki natija uchun javobgarlik); 3) ijro mexanizmi (ma‘muriy nazorat, sanksiyalar va fuqarolik javobgarligi); 4) uchinchi davlatlardagi yetkazib beruvchilarga ta‘sir kanali. Muallif xalqaro shartnomalar normalarini 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasining 31–32-moddalaridagi sharhlash qoidalari asosida talqin qildi (formal-yuridik usul). O‘zbekiston paxta sektoridagi tajribani aniq holatni o‘rganish usulida, XMT monitoringi va boshqa rasmiy manbalar ma‘lumotlarining ikkilamchi tahlili asosida baholadi.

Natijalarga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan xato manbalari ham hisobga olindi. Birinchidan, tahlil qilingan qonunchilik o‘zgarish jarayonida: Germaniya qonuniga o‘zgartirishlar loyihasi 2026-yil 14-yanvarda Bundestagda birinchi o‘qishda muhokama qilingan, ammo uning qabul qilinganligi tasdiqlanmagan [46]; 2024/3015-son Reglament esa 2027-yil 14-dekabrdan qo‘llaniladi, shuning uchun uning ijro amaliyoti hali mavjud emas. Demak, Reglament va Direktivaning ta‘siriga oid xulosalar prognoz xususiyatiga ega. Ikkinchidan, XMT monitoringi suhbatlarga asoslangan, davlat tomonidan yuklangan majburiy mehnat sharoitida esa respondentlar haqiqiy holatni to‘liq oshkor etmasligi mumkin [23]. Uchinchidan, tadqiqot eksportchi korxonalar o‘rtasida empirik so‘rov o‘tkazmagan, shu sababli ta‘sir kanallari normativ tahlil asosida aniqlangan. Ushbu cheklovlarni kamaytirish uchun muallif har bir faktni birlamchi rasmiy manba bilan solishtirdi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Natijalar. Qiyosiy tahlil korporativ javobgarlikni tartibga solishning uchta modelini ajratish imkonini berdi: shaffoflik (hisobot berish) modeli, majburiy tegishli tekshiruv modeli va bozorga kirishni cheklash modeli (1-jadval).

1-jadval

Majburiy mehnat uchun korporativ javobgarlikni tartibga solish modellarining qiyosiy tavsifi

Model	Huquqiy hujjatlar (misollar)	Asosiy majburiyat	Ijro mexanizmi
Shaffoflik	Buyuk Britaniya, Zamonaviy qullik to‘g‘risidagi qonun (2015), 54-bo‘lim	Har yili qullik va odam savdosi to‘g‘risida bayonot e‘lon qilish	Davlat kotibining sudga majburlov da‘vosi; jarima yo‘q
Majburiy tegishli tekshiruv	Fransiya, 2017-399-son qonun; Germaniya, LkSG (2021); YeI, 2024/1760-son Direktiva (2026/470-son Direktiva tahririda)	Ehtiyotkorlik rejasi; xavflarni boshqarish, profilaktika va tuzatish choralari, shikoyat tartibi	Sudning majburlov buyrug‘i; ma‘muriy nazorat; Germaniyada aylanmaning 2 foizigacha, YeIda 3 foizigacha jarima

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Model	Huquqiy hujjatlar (misollar)	Asosiy majburiyat	Ijro mexanizmi
Bozorga kirishni cheklash	AQSh, Tariflar to‘g‘risidagi qonun (1930), 307-bo‘lim; UFLPA (2021); YeI, 2024/3015-son Reglament	Mahsulot majburiy mehnatsiz ishlab chiqarilganini ko‘rsata olish	Importni to‘xtatish; bozorga chiqarish va eksportni taqiqlash, olib qo‘yish va utilizatsiya

Izoh: muallif ishlanmasi; manbalar: [31; 32; 33; 34; 35; 37; 38]. Ma‘lumotlar 2026-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra keltirilgan.

Shaffoflik modeli. Bu modelda davlat korxonaga muayyan choralar ko‘rish majburiyatini emas, balki ko‘rilgan choralar haqida axborot berish majburiyatini yuklaydi. Buyuk Britaniyaning 2015-yilgi Zamonaviy qullik to‘g‘risidagi qonunining 54-bo‘limiga ko‘ra, yillik aylanmasi 36 mln funt sterlingdan kam bo‘lmagan tijorat tashkilotlari har bir moliya yili uchun qullik va odam savdosi to‘g‘risida bayonot e‘lon qiladi [31]. Bayonotda hech qanday chora ko‘rilmaganini qayd etish ham qonun talabini bajarish hisoblanadi, talabni bajarmaganlik uchun jarima nazarda tutilmagan: Davlat kotibi faqat sud orqali majburlov buyrug‘ini olishi mumkin. Shu tariqa model axborot muhitini yaratadi, biroq korxona xatti-harakatini o‘zgartirishda iste‘molchilar, investorlar va fuqarolik jamiyatining reaksiyasiga tayanadi.

Majburiy tegishli tekshiruv modeli. Fransiyaning 2017-yil 27-martdagi qonuni o‘zi va sho‘ba korxonalarida Fransiyada kamida 5000 yoki butun dunyoda kamida 10 000 xodim ishlaydigan kompaniyalarga ehtiyotkorlik rejasini ishlab chiqish, e‘lon qilish va samarali amalga oshirish majburiyatini yuklaydi. Reja

Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

xavflar xaritasi, sho‘ba korxonalar, pudratchilar va yetkazib beruvchilarni muntazam baholash tartiblari, xavflarni yumshatish choralari, kasaba uyushmalari bilan kelishilgan ogohlantirish mexanizmi va monitoring tizimini o‘z ichiga oladi [32]. Parij sudi 2023-yil 5-dekabrda ushbu qonun asosidagi birinchi mazmunan hal qiluvchi qarorda La Poste kompaniyasiga rejani to‘rt element bilan to‘ldirishni buyurdi, shu jumladan xavflarni ustuvorlik bo‘yicha tartiblaydigan xavflar xaritasini tuzishni [47]. Bu qaror ehtiyotkorlik rejasining sifati ustidan sud nazorati amalda mumkinligini ko‘rsatdi.

Germaniyaning 2021-yilgi Ta‘minot zanjirlarida tegishli tekshiruv to‘g‘risidagi qonuni 2024-yildan Germaniyada kamida 1000 xodimga ega korxonalarga tatbiq etiladi. U xavflarni boshqarish tizimini, muntazam xavf tahlilini, profilaktika va tuzatish choralarini hamda shikoyat tartibini talab qiladi; yillik aylanmasi 400 mln yevrodan ortiq korxonalarga o‘rtacha yillik global aylanmaning 2 foizigacha jarima solinishi va ular davlat xaridlaridan chetlatilishi mumkin, biroq qonun yangi fuqarolik javobgarligi asosini yaratmaydi [33]. 2025-yil sentabrida hukumat ma‘qullagan loyiha hisobot berish majburiyatini bekor qilishni va jarimalarni faqat jiddiy buzilishlar uchun saqlashni nazarda tutadi [46].

YeI darajasida 2024/1760-son Direktiva tegishli tekshiruvni bosqichma-bosqich jarayon sifatida tartibga soldi va ilovasida majburiy mehnat taqiqini korxonalar hurmat qilishi lozim bo‘lgan huquqlar qatoriga kiritdi [36]. Biroq Direktiva qo‘llanila boshlashidan oldin 2026-yil 24-fevraldagi 2026/470-son Direktiva bilan tubdan o‘zgartirildi. Endi u 5000 dan ortiq xodimga va 1,5 mlrd yevrodan ortiq sof aylanmaga ega YeI kompaniyalariga hamda YeIda 1,5 mlrd yevrodan ortiq aylanmaga ega uchinchi davlat kompaniyalariga 2029-yil 26-iyuldan tatbiq etiladi; ta‘minot zanjirini to‘liq xaritalash o‘rniga xavflarni umumiy

aniqlash tartibi joriy etildi; biznes munosabatlarini oxirgi chora sifatida bekor qilish majburiyati va YeI darajasidagi yagona fuqarolik javobgarligi rejimi chiqarib tashlandi; jarimaning eng yuqori miqdori global sof aylanmaning 3 foizi bilan cheklandi [37].

Bozorga kirishni cheklash modeli. Bu model korxonaning tegishli tekshiruv jarayoniga emas, balki mahsulotning o‘ziga qaratilgan. AQShning 1930-yilgi Tariflar to‘g‘risidagi qonunining 307-bo‘limi majburiy mehnat bilan ishlab chiqarilgan tovarlar importini taqiqlaydi; uzoq vaqt bu taqiqni cheklab kelgan “iste‘mol talabi” istisnosi 2016-yilda bekor qilindi [34]. 2021-yilgi Uyg‘ur majburiy mehnatining oldini olish to‘g‘risidagi qonun 2022-yil 21-iyundan rad etiladigan prezumpsiyani joriy etdi: Shinjon bilan bog‘liq tovarlar majburiy mehnat mahsuli deb hisoblanadi, importyor esa aksini aniq va ishonchli dalillar bilan isbotlashi kerak [35].

YeIning 2024/3015-son Reglamenti majburiy mehnatni XMTning 29-son Konvensiyasiga muvofiq ta‘riflaydi va qazib olish, yig‘ib olish, ishlab chiqarish yoki qayta ishlashning har qanday bosqichida to‘liq yoki qisman majburiy mehnatdan foydalanilgan mahsulotlarni YeI bozorida muomalaga chiqarishni, bozorda taqdim etishni va YeIdan eksport qilishni taqiqlaydi. Taqiq mahsulotning kelib chiqish mamlakatidan qat‘i nazar tatbiq etiladi. Vakolatli organlar tergov boshlashda gumon qilinayotgan majburiy mehnatning ko‘lami va jiddiyligini, jumladan davlat tomonidan yuklangan majburiy mehnat ehtimolini hisobga oladi; uchinchi davlatlar hududidagi xavflarga oid ishlarda Komissiya yetakchilik qiladi. Majburiy mehnat aniqlansa, mahsulotni bozorga chiqarish va eksport qilish taqiqlanadi, u bozordan olib qo‘yiladi va utilizatsiya qilinadi. Reglament 2027-yil 14-dekabrdan qo‘llaniladi [38]. Komissiyaning 2026-yil 26-iyundagi yo‘riqnomasi

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

iqtisodiy operatorlar uchun olti bosqichli tegishli tekshiruvni tavsiya etadi, ammo uni majburiy qilmaydi; shu bilan birga, operatorning tergovda hamkorlik qilmasligi qoidabuzarlik to‘g‘risidagi xulosaga asos bo‘lishi mumkin [39].

Modellarning O‘zbekiston eksportchilariga ta‘sir kanallari. Uchala model O‘zbekiston eksportchilariga bevosita emas, balki xorijiy xaridorlar va importchi davlat organlari orqali ta‘sir ko‘rsatadi (2-jadval). Masalan, 2024/1760-son Direktivaning 10-moddasi YeI kompaniyasidan bevosita biznes sheriklaridan xulq-atvor kodeksiga rioya etilishi haqida shartnomaviy kafolatlar olishga intilishni, ularning bajarilishini mustaqil uchinchi tomon tekshiruvi kabi choralar bilan tekshirishni va biznes sherigi bo‘lgan kichik va o‘rta korxonalarga maqsadli yordam ko‘rsatishni talab qiladi [36]. Natijada O‘zbekistonning to‘qimachilik korxonasi YeI qonunining bevosita subyekti bo‘lmasa ham, shartnoma orqali uning talablariga rioya qilishga majbur bo‘ladi.

2-jadval

Korporativ javobgarlik modellarining O‘zbekiston eksportchilariga ta‘sir kanallari va moslashish vositalari

Model	Eksportchiga ta‘sir kanali	Asosiy xavf	Moslashish vositasi
Shaffoflik	Xorijiy xaridorlarning axborot so‘rovlari va anketalari	Zarur axborotni bera olmaslik sababli xaridorni yo‘qotish	Ichki siyosat, ta‘minot zanjiri xaritasi, ochiq hisobot

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Model	Eksportchiga ta‘sir kanali	Asosiy xavf	Moslashish vositasi
Majburiy tegishli tekshiruv	Shartnomaviy kafolatlar, xulq-atvor kodekslari, auditlar	Audit talablariga javob bermaslik, shartnomaning to‘xtatilishi	Tegishli tekshiruv tizimi, shikoyat mexanizmi, tuzatish rejalari
Bozorga kirishni cheklash	Bojxona va bozor nazorati organlarining tergovlari	Mahsulot partiyasining taqiqlanishi, tarmoq obro‘siga zarar	Kuzatuvchanlik, ishonchli monitoring ma‘lumotlari, davlatlararo muloqot

Izoh: muallif ishlanmasi; ta‘sir kanallari normativ tahlil asosida aniqlangan, empirik so‘rov o‘tkazilmagan.

O‘zbekiston qonunchiligi va amaliyotining holati. O‘zbekiston 2019-yilda XMTning 2014-yilgi Bayonnomasini [2], shuningdek mehnat inspeksiyasi to‘g‘risidagi 81 va 129-son konvensiyalarni ratifikatsiya qilgan. 2021-yil aprelidan mamlakat YeIning GSP+ imtiyozli savdo tizimi benefitsiari hisoblanadi, bu maqom esa mehnat huquqlariga oid asosiy konvensiyalarni samarali amalga oshirish sharti bilan beriladi [48]. 2022-yilgi Mehnat kodeksining 5-moddasi majburiy mehnatni taqiqlaydi [41]. Jinoyat kodeksining 148^2-moddasi voyaga yetganlarga nisbatan majburiy mehnat uchun jinoiy javobgarlikni ma‘muriy preyuditsiyaga, ya‘ni shunday huquqbuzarlik uchun ma‘muriy jazo qo‘llanganidan keyin uni takroran sodir etishga bog‘laydi; voyaga yetmaganlarga nisbatan esa 2021-yil 12-fevraldagi O‘RQ-673-son Qonun bilan bevosita jinoiy javobgarlik belgilangan [42].

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

XMT monitoringi ma‘lumotlariga ko‘ra, paxta terimida majburiy mehnatga jalb etilganlar ulushi 2017-yildagi 13,0 foizdan 2019-yilda 5,9 foizga kamaygan, 2021-yilda esa 11 mingga yaqin suhbat natijalariga ko‘ra terimchilarning taxminan 1 foizigina majburlash shakllariga duch kelgan va hosil tizimli majburiy mehnatdan xoli deb e‘tirof etilgan [43]. 2022-yil martida “Paxta kampaniyasi” koalitsiyasi O‘zbekiston paxtasiga nisbatan boykotni bekor qildi [49]. Shu bilan birga, AQSh Davlat departamentining 2024-yilgi ma‘ruzasi tekshiruvlarga oid moratoriy tufayli 344 nafar mehnat inspektori ish joylariga oldindan xabar bermasdan tashrif buyura olmasligini, 19 876 ta shikoyat bo‘yicha majburiy mehnat holati aniqlanmaganini va 2023-yilgi terimda tizimli majburiy mehnat qayd etilmagan bo‘lsa-da, alohida holatlar saqlanib qolganini qayd etadi hamda 148^2-moddani o‘zgartirishni tavsiya qiladi [44]. Milliy qonunchilikda korxonalarning inson huquqlari bo‘yicha tegishli tekshiruv majburiyati maxsus tartibga solinmagan. Muallif aniqlagan bo‘shliqlar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar 3-jadvalda umumlashtirilgan.

3-jadval

O‘zbekiston qonunchiligidagi bo‘shliqlar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar

Xalqaro talab	Amaldagi holat	Taklif

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Xalqaro talab	Amaldagi holat	Taklif
XMTning 29-son Konvensiyasi, 2-moddasi 2-bandi (c) kichik bandi: sud hukmi bilan tayinlangan ish xususiy shaxslar ixtiyoriga berilmasligi	Mehnat kodeksining 5-moddasidagi istisnoda bu shart aks etmagan	Shartni 5-moddaga kiritish; istisno hollarda mahkumning yozma roziligi va erkin mehnatga yaqin sharoitlarni talab qilish
XMTning 29-son Konvensiyasi, 25-modda: jinoiy jazolar yetarli va qat‘iy qo‘llanishi	JK 148²-moddasi: voyaga yetganlar uchun ma‘muriy preyudiziya	Mansabdor shaxs tomonidan, ikki va undan ortiq shaxsga nisbatan, ish haqi yoki hujjatlarni ushlab qolish yoxud qarz orqali sodir etilgan hollarda preyudiziyasiz javobgarlik
2014-yilgi Bayonnoma, 4-modda: jabrlanuvchilarga kompensatsiya va himoya vositalari	Odam savdosidan tashqari holatlar uchun maxsus mexanizm yo‘q	Ish haqi va zararni soddalashtirilgan tartibda undirish; jabrlanuvchini majburlash natijasidagi huquqbuzarliklar uchun jazolamaslik

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Xalqaro talab	Amaldagi holat	Taklif
XMTning 81-son Konvensiyasi, 12 va 15-moddalar: oldindan xabar bermasdan tekshirish, shikoyat manbaining maxfiyligi	Tekshiruvlarga oid moratoriy mehnat inspeksiyasiga ham tatbiq etiladi	Mehnat inspeksiyasini moratoriy doirasidan chiqarish
2014-yilgi Bayonnoma, 2-moddasi (e) kichik bandi: davlat va xususiy sektorning tegishli tekshiruvini qo‘llab-quvvatlash	Korxonalarning tegishli tekshiruv majburiyati tartibga solinmagan	Tegishli tekshiruvni uch bosqichda joriy etish; kuzatuvchanlik reyestri; maslahat markazlari

Izoh: muallif ishlanmasi; manbalar: [1; 2; 41; 42; 44].

Muhokama. Olingan natijalar xalqaro adabiyotdagi xulosalarni qisman tasdiqlaydi va O‘zbekiston sharoitida aniqlashtiradi. Birinchidan, shaffoflik modelining cheklangan samaradorligi haqidagi M.A. Islam va C.J. Van Staden xulosasi [9] Britaniya qonunidagi jarima yo‘qligi va “chora ko‘rilmaganini bayon qilish” imkoniyati bilan izohlanadi. Muallifning fikricha, shaffoflik modeli majburiy tegishli tekshiruvga o‘tishning zarur, ammo yetarli bo‘lmagan bosqichidir: u axborot muhitini yaratadi, biroq xatti-harakatni o‘zgartirish uchun qo‘shimcha huquqiy vositalarni talab qiladi.

Ikkinchidan, auditga asoslangan yondashuvlarning cheklovlari [6; 7] va majburiy mehnatning tuzilmaviy sabablari [5; 50] haqidagi xulosalar milliy tegishli

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

tekshiruv tizimini loyihalash uchun muhim. B. Choudhury ta‘kidlaganidek, tegishli tekshiruv o‘z-o‘zidan tuzilmaviy muammolarni hal etmaydi [11]. O‘zbekiston paxta sektorida esa tuzilmaviy xavf davlat safarbarligi merosi bilan bog‘liq [20; 22]. Muallifning fikricha, klaster tizimiga o‘tish bilan bu xavf davlat sektoridan klasterlar va fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi xususiy munosabatlarga ko‘chmoqda. Shu sababli milliy tizim faqat audit va sertifikatlash bilan cheklanmasligi, balki ishchilar ishtirokini, shikoyat mexanizmini va kasaba uyushmalarining mustaqilligini ta‘minlashi lozim.

Uchinchidan, tahlil eksportchi uchun eng jiddiy oqibatlarni bozorga kirishni cheklash modeli keltirib chiqarishini ko‘rsatdi, chunki u alohida korxona emas, balki mahsulot va butun tarmoq darajasida ta‘sir qiladi. 2024/3015-son Reglament davlat tomonidan yuklangan majburiy mehnatni tergov uchun ustuvor mezon sifatida belgilagan [38]. Paxta sektorida tizimli majburiy mehnat tarixan aynan davlat safarbarligi shaklida bo‘lgani sababli, eski amaliyotning har qanday qayta tiklanishi O‘zbekiston mahsulotlariga nisbatan tergov ehtimolini oshiradi. A. Zenz bunday majburlashni an‘anaviy indikatorlar bilan aniqlash qiyinligini ko‘rsatgan [23; 24], S. Schaefer va J. Hauge esa xaridorlarning majburiy mehnatga qarshi harakati ularning tijoriy manfaatlariga bog‘liqligini aniqlagan [21]. Bundan kelib chiqadiki, boykot bekor qilinganidan keyin xaridorlarning talablari asosan importchi davlatlar qonunchiligi bilan belgilanadi, eksportchi esa majburiy mehnat yo‘qligini ishonchli ma‘lumotlar bilan ko‘rsata olishi kerak. Bunday ma‘lumotlarni faqat korxona emas, balki davlat ham mustaqil monitoring, kuzatuvchanlik tizimi va ochiq statistika orqali ta‘minlashi lozim.

To‘rtinchidan, savdo cheklovlarining Jahon savdo tashkiloti (JST) huquqiga muvofiqligi masalasida muallif C. Martínez San Millán [17] va J. Hillman va

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

hammualliflar [51] bilan hamfikr: choraning kamsitmaslik xususiyati, shaffofligi va protsessual kafolatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Muallifning fikricha, YeI Reglamenti AQShning hududga asoslangan prezumpsiyasiga nisbatan GATT 1994ning I, III va XX moddalari [40] nuqtai nazaridan mustahkamroq asosga ega, chunki u kelib chiqish mamlakatidan qat‘i nazar barcha mahsulotlarga, jumladan YeIda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ham teng tatbiq etiladi va har bir holat bo‘yicha xavfga asoslangan tergovni nazarda tutadi. H.-K. Jeong va S.-H. Park qamrovi toraytirilgan Direktiva XX moddaning (a) bandi bo‘yicha zaruriyat testida Reglamentga teng hissa qo‘shadigan muqobil chora sifatida kamroq ishonchli ekanini ko‘rsatgan [19]. Demak, Reglamentning JST huquqi nuqtai nazaridan himoyalanish imkoniyati yanada oshadi. Shu sababli JSTga a‘zo bo‘lish jarayonidagi O‘zbekiston uchun bunday choralar ustidan nizolashishdan ko‘ra ularning talablariga javob berish strategiyasi maqbulroq.

Beshinchidan, “Omnibus I” paketi Direktiva qamrovini taxminan 70 foizga qisqartirgan bo‘lsa-da, uning uchinchi davlat eksportchilariga ta‘siri saqlanadi, chunki YeIning eng yirik kompaniyalari global ta‘minot zanjirlarining asosiy buyurtmachilaridir. Bu xulosa Direktivaning YeIdan tashqaridagi oqibatlari [13], uning ishchi huquqlariga ta‘siri [14] va javobgarlik qoidalari [15] haqidagi tadqiqotlarga mos keladi. Biznes munosabatlarini bekor qilish majburiyatining olib tashlanishi esa yetkazib beruvchilar uchun ijobiy oqibatga ega bo‘lishi mumkin: BMT Rahbariy tamoyillarining 19-tamoyili sharhida munosabatlarni to‘xtatishning salbiy oqibatlarini hisobga olish zarurligi ta‘kidlangan [4], xavf aniqlanganda xaridorning chiqib ketishi esa ishchilarni ish joyidan mahrum qilishi mumkin. J. Harrison qayd etgan xarajatlarni yetkazib beruvchilarga yuklash xavfi [12] esa

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

milliy darajada kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahlil asosida muallif korporativ tegishli tekshiruvni uch bosqichda joriy etishni taklif qiladi. Birinchi bosqichda (2027-yil) biznes va inson huquqlari bo‘yicha milliy harakat rejasi qabul qilinadi, BMT Rahbariy tamoyillari, IHTT yo‘riqnomasi va Yevropa Komissiyasining 2026-yilgi yo‘riqnomasiga mos uslubiy qo‘llanma ishlab chiqiladi hamda yirik eksportchilar, davlat ishtirokidagi korxonalar va paxta-to‘qimachilik klasterlari uchun ixtiyoriy hisobot tizimi joriy etiladi. Ikkinchi bosqichda (2028–2029-yillar) “Tadbirkorlik subyektlarining inson huquqlari bo‘yicha tegishli tekshiruvi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinadi; u majburiy mehnat xavfi yuqori tarmoqlardagi yirik korxonalar uchun IHTTning olti bosqichli modeliga asoslangan tegishli tekshiruvni, shikoyat mexanizmini, yillik hisobotni va mas‘uliyatli chiqish qoidasini, kichik va o‘rta korxonalar uchun esa soddalashtirilgan talablarni nazarda tutadi. Uchinchi bosqichda (2029-yildan keyin) tegishli tekshiruv davlat xaridlari, eksportni qo‘llab-quvvatlash va davlat kafolatlari berish shartlariga kiritiladi. Bosqichma-bosqich yondashuv xalqaro talablarning kuchga kirish muddatlariga va “soddalashtirish” tendensiyasiga mos keladi.

Tegishli tekshiruvning samaradorligi ta‘minot zanjirining kuzatuvchanligiga bog‘liq. Shu bois paxta-to‘qimachilik sektorida “daladan tayyor mahsulotgacha” kuzatuvchanlikni ta‘minlovchi milliy elektron reyestr yaratish maqsadga muvofiq. H.-K. Jeong va S.-H. Park tomonidan farqlangan ikki tushunchadan kelib chiqib [19], muallif reyestr faqat mahsulotning kelib chiqish yo‘lini (maydon, fermer xo‘jaligi, klaster, qayta ishlash korxonasi, eksport partiyasi) emas, balki terimchilarni yollash va ish haqi to‘lash haqidagi asosiy ma‘lumotlarni ham qayd

etishi lozim deb hisoblaydi. Aynan shunday ma‘lumotlar Reglament doirasidagi tergovda mehnat sharoitini muayyan mahsulot partiyasiga bog‘lash imkonini beradi.

Nihoyat, J.A. Brown va hammualliflar ko‘rsatgan turli davlatlar rollarining o‘zaro ta‘siri [8] O‘zbekiston uchun xalqaro hamkorlikni ko‘p darajali model sifatida qurish zarurligini tasdiqlaydi. Bu model davlatlararo (XMT konvensiyalari va savdo kelishuvlari), institutsional (XMT nazorat organlari, GSP+ monitoringi, IHTT) va transmilliy-korporativ (tegishli tekshiruv, shartnomaviy kafolatlar, kuzatuvchanlik) darajalarni birlashtiradi. Amaliy jihatdan muallif Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha milliy komissiyani 2024/3015-son Reglament doirasida Yevropa Komissiyasi bilan muloqot uchun muvofiqlashtiruvchi organ sifatida belgilashni, IHTTning Xalqaro investitsiyalar va transmilliy korxonalar to‘g‘risidagi deklaratsiyasiga qo‘shilib, Milliy aloqa markazini tashkil etishni hamda XMT bilan 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan Munosib mehnat bo‘yicha mamlakat dasturiga biznes va inson huquqlari komponentini kiritishni taklif qiladi.

Tadqiqot natijalarining umumlashtirilish darajasi cheklangan: ular asosan paxta-to‘qimachilik sektoriga tayanadi va Reglament ijro amaliyoti boshlanmasidan oldingi holatni aks ettiradi. Keyingi tadqiqotlarda eksportchi korxonalarning tegishli tekshiruvga tayyorgarlik darajasini empirik so‘rov orqali baholash hamda ipakchilik va qurilish kabi boshqa tarmoqlardagi xavflarni o‘rganish maqsadga muvofiq.

XULOSA. Global ta‘minot zanjirlarida majburiy mehnat uchun korporativ javobgarlikni tartibga solishning uchta modeli shakllangan: shaffoflik, majburiy tegishli tekshiruv va bozorga kirishni cheklash. Modellar bir-birini to‘ldiradi:

birinchisi axborot muhitini yaratadi, ikkinchisi jarayonni tartibga soladi, uchinchisi natija uchun javobgarlikni belgilaydi.

2025–2026-yillarda YeI va Germaniyada qamrov va sanksiyalarni qisqartirish tendensiyasi kuzatilmoqda, biroq tegishli tekshiruvning asosiy elementlari (xavflarni aniqlash, oldini olish choralari va shikoyat mexanizmi) saqlanib, bozor amaliyotining umumiy standartiga aylanmoqda.

“Omnibus I” paketidan keyin ham 2024/1760-son Direktiva talablari shartnomaviy kafolatlar, xulq-atvor kodekslari va auditlar orqali O‘zbekiston eksportchilariga uzatiladi. Eng jiddiy xavfni esa mahsulot va tarmoq darajasida ta‘sir qiluvchi 2024/3015-son Reglament tug‘diradi; u davlat tomonidan yuklangan majburiy mehnatni ustuvor mezon sifatida belgilaydi.

O‘zbekiston qonunchiligida korxonalarning tegishli tekshiruv majburiyati yo‘q, voyaga yetganlarga nisbatan ma‘muriy preyuditsiya modeli XMTning 29-son Konvensiyasi 25-moddasiga to‘liq javob bermaydi, jabrlanuvchilarga kompensatsiya mexanizmi mavjud emas, mehnat inspeksiyasining oldindan xabar bermasdan tekshirish vakolati cheklangan.

Muallif tegishli tekshiruvni uch bosqichda (2027-yil; 2028–2029-yillar; 2029-yildan keyin) joriy etishni, paxta-to‘qimachilik sektorida mehnat sharoitlariga oid ma‘lumotlarni ham qamrab oluvchi kuzatuvchanlik reyestrini yaratishni, Mehnat va Jinoyat kodekslariga aniq o‘zgartirishlar kiritishni hamda Yevropa Komissiyasi bilan hamkorlik uchun milliy muvofiqlashtiruvchi organni belgilashni taklif etadi.

Paxta sektorida erishilgan natijalarni barqaror saqlashning huquqiy sharti majburiy mehnatga qarshi xalqaro hamkorlikni davlat darajasidan korporativ darajaga kengaytirishdir. Takliflardan qonun ijodkorligida, XMT nazorat

organlariga hisobotlar tayyorlashda va eksportchi korxonalarning ichki muvofiqlik tizimlarini shakllantirishda foydalanish mumkin.

Minnatdorchilik. Muallif ilmiy rahbari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor J.A. Rasulovga tadqiqot davomidagi qimmatli maslahatlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. International Labour Organization. Forced Labour Convention, 1930 (No. 29). Geneva: ILO, 1930. Available at: https://normlex.ilo.org/dyn/nrmlx_en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_ILO_CODE:C029

2. International Labour Organization. Protocol of 2014 to the Forced Labour Convention, 1930. Geneva: ILO, 2014. Available at: https://normlex.ilo.org/dyn/nrmlx_en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_ILO_CODE:P029

3. International Labour Organization, Walk Free, International Organization for Migration. Global estimates of modern slavery: Forced labour and forced marriage. Geneva: ILO, 2022. Available at: https://www.ilo.org/publications/major-publications/global-estimates-modern-slavery-forced-labour-and-forced-marriage

4. United Nations Human Rights Council. Guiding Principles on Business and Human Rights: Implementing the United Nations “Protect, Respect and Remedy” Framework (UN Doc. A/HRC/17/31). 2011. Available at: https://www.ohchr.org/sites/default/files/documents/publications/guidingprinciplesbusinesshr_en.pdf

Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

5. LeBaron, G. The role of supply chains in the global business of forced labour. Journal of Supply Chain Management. 2021;57(2):29–42. DOI: 10.1111/jscm.12258

6. Wilhelm, M., Bhakoo, V., Soundararajan, V., Crane, A., Kadfak, A. Beyond compliance-based governance: The role of social intermediaries in mitigating forced labour in global supply chains. Production and Operations Management. 2025;34(5):1094–1113. DOI: 10.1177/10591478231224922

7. Linn, S. Worker voice in the fight against forced labour: The role of multinational enterprises in supply chain accountability. Anti-Trafficking Review. 2026;26:182–186. DOI: 10.14197/atr.2012262610

8. Brown, J.A., Hughes, A., Bhutta, M.F., Trautrims, A., Trueba, M.L. Synergistic state governance of labour standards in global value chains: Forced labour in the Malaysia–Nepal–UK medical gloves supply chain. Competition & Change. 2024;28(5):581–603. DOI: 10.1177/10245294241272190

9. Islam, M.A., Van Staden, C.J. Modern slavery disclosure regulation and global supply chains: Insights from stakeholder narratives on the UK Modern Slavery Act. Journal of Business Ethics. 2022;180(2):455–479. DOI: 10.1007/s10551-021-04878-1

10. Bueno, N., Kaufmann, C. The Swiss human rights due diligence legislation: Between law and politics. Business and Human Rights Journal. 2021;6(3):542–549. DOI: 10.1017/bhj.2021.42

11. Choudhury, B. Corporate law's threat to human rights: Why human rights due diligence might not be enough. Business and Human Rights Journal. 2023;8(2):180–196. DOI: 10.1017/bhj.2023.29

12. Harrison, J. Human rights due diligence: Lessons from a regulatory intermediary perspective. Netherlands Quarterly of Human Rights. 2026;44(2):109–131. DOI: 10.1177/09240519261433385

13. Bueno, N., Bernaz, N., Holly, G., Martin-Ortega, O. The EU Directive on Corporate Sustainability Due Diligence (CSDDD): The final political compromise. Business and Human Rights Journal. 2024;9(2):294–300. DOI: 10.1017/bhj.2024.10

14. Velluti, S. Labour standards in global garment supply chains and the proposed EU corporate sustainability due diligence directive. European Labour Law Journal. 2024;15(4):822–850. DOI: 10.1177/20319525241239283

15. Salminen, J. Due diligence and liability under the European Union's Corporate Sustainability Due Diligence Directive. European Review of Contract Law. 2026;22(1):143–167. DOI: 10.1515/ercl-2026-2009

16. Eustace, A. The European Union's forced labour regulation: Putting the 'Brussels effect' to work for international labour standards. European Labour Law Journal. 2024;15(1):144–165. DOI: 10.1177/20319525231221097

17. Martínez San Millán, C. European Union's governance through trade. Considerations on the Proposal for a Regulation on prohibiting products made with forced labour on the Union market. Spanish Yearbook of International Law. 2024;27:163–190. DOI: 10.36151/sybil.2024.007

18. Tyc, A., Siuciński, R. Regulation on prohibiting products made with forced labour on the Union market: Comments from the perspective of comparative, labour and administrative procedural laws. Studia Iuridica Toruniensia. 2025;36(1):131–150. DOI: 10.12775/sit.2025.007

19. Jeong, H.-K., Park, S.-H. Product exclusion as market-access governance: The EU Forced Labour Regulation and Korea's distant-water fishing supply chain. Laws. 2026;15(6):149. DOI: 10.3390/laws15060149

20. McGuire, D., Laaser, K. 'You have to pick': Cotton and state-organized forced labour in Uzbekistan. Economic and Industrial Democracy. 2021;42(3):552–572. DOI: 10.1177/0143831X18789786

21. Schaefer, S., Hauge, J. The muddled governance of state-imposed forced labour: Multinational corporations, states, and cotton from China and Uzbekistan. New Political Economy. 2023;28(5):799–817. DOI: 10.1080/13563467.2023.2184470

22. Zenz, A. Coercive labor in the cotton harvest in the Xinjiang Uyghur Autonomous Region and Uzbekistan. Communist and Post-Communist Studies. 2023;56(2):1–32. DOI: 10.1525/cpcs.2023.1822939

23. Zenz, A. Measuring non-internment state-imposed forced labor in Xinjiang and Central Asia: An assessment of ILO measurement guidelines. Journal of Human Trafficking. 2023;12(4):484–510. DOI: 10.1080/23322705.2023.2270366

24. Zenz, A. Architecture of coercion: Conceptualizing and measuring state-imposed forced labor based on ILO standards. Journal of Human Trafficking. 2026:1–36. DOI: 10.1080/23322705.2026.2661024

25. Rasulov, J.A. Majburiy mehnatni tugatish bo'yicha xalqaro standartlarni O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalari [Issues of implementing international standards on the abolition of forced labour into the legislation of the Republic of Uzbekistan]: PhD dissertation. Tashkent: Tashkent State University of Law, 2021 (in Uzbek).

26. Sulaymanov, O., Rasulov, J. Abolition of forced labour: Case of Uzbekistan. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education. 2021;12(4):1078–1089. Available at: https://ssrn.com/abstract=4485273

27. Usmanov, K.M. Implementation of the norms of the International Labor Organization conventions on forced labor in the labor legislation of the Republic of Uzbekistan. Journal of Law Research. 2022;7(18). DOI: 10.5281/zenodo.7220866

28. Nigmatov, K. Legal basis of implementation of social responsibility of transnational corporations in international law. Society and Innovations. 2023;4(4/S):68–72. DOI: 10.47689/2181-1415-vol4-iss4/S-pp68-72

29. Makhmudjonova, Kh. Human trafficking and modern slavery in Uzbekistan: Compliance with international legal standards. Central Asian Journal of Academic Research. 2026;4(5):100–106. DOI: 10.5281/zenodo.20080435

30. OECD. OECD Guidelines for Multinational Enterprises on Responsible Business Conduct. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/81f92357-en

31. Modern Slavery Act 2015 (United Kingdom), c. 30, section 54. Available at: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2015/30/section/54

32. Loi n° 2017-399 du 27 mars 2017 relative au devoir de vigilance des sociétés mères et des entreprises donneuses d'ordre [Law No. 2017-399 of 27 March 2017 on the duty of vigilance of parent companies and ordering companies]. Journal officiel de la République française, 28.03.2017 (in French). Available at: https://www.legifrance.gouv.fr/jorf/id/JORFTEXT000034290626

33. Gesetz über die unternehmerischen Sorgfaltspflichten zur Vermeidung von Menschenrechtsverletzungen in Lieferketten (Lieferkettensorgfaltspflichtengesetz – LkSG) vom 16. Juli 2021 [Act on Corporate Due Diligence Obligations in Supply Chains of 16 July 2021].

Bundesgesetzblatt 2021, Teil I, 2959 (in German). Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/lksg/

34. Tariff Act of 1930 (United States), § 307, 19 U.S.C. § 1307. Available at: https://www.law.cornell.edu/uscode/text/19/1307

35. Uyghur Forced Labor Prevention Act (United States), Public Law 117-78, 23.12.2021. Available at: https://www.congress.gov/117/plaws/publ78/PLAW-117publ78.pdf

36. European Parliament, Council of the European Union. Directive (EU) 2024/1760 of 13 June 2024 on corporate sustainability due diligence and amending Directive (EU) 2019/1937 and Regulation (EU) 2023/2859. Official Journal of the European Union, L series, 05.07.2024. Available at: https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2024/1760/oj

37. European Parliament, Council of the European Union. Directive (EU) 2026/470 of 24 February 2026 amending Directives 2006/43/EC, 2013/34/EU, (EU) 2022/2464 and (EU) 2024/1760 as regards certain corporate sustainability reporting and due diligence requirements. Official Journal of the European Union, L series, 26.02.2026. Available at: https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2026/470/oj

38. European Parliament, Council of the European Union. Regulation (EU) 2024/3015 of 27 November 2024 on prohibiting products made with forced labour on the Union market and amending Directive (EU) 2019/1937. Official Journal of the European Union, L series, 12.12.2024. Available at: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/3015/oj

39. European Commission. Guidelines on the application of Regulation (EU) 2024/3015 on prohibiting products made with forced labour on the Union market, C(2026) 4386 final, 26.06.2026. Available at:

https://service.betterregulation.com/sites/default/files/2026-07/C%282026%29%204386%20final.pdf

40. World Trade Organization. General Agreement on Tariffs and Trade 1994. Available at: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/06-gatt_e.htm

41. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi [Labour Code of the Republic of Uzbekistan]. 28.10.2022 (in Uzbek). Available at: https://lex.uz/acts/-6257288

42. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. 22.09.1994, with amendments (in Uzbek). Available at: https://lex.uz/docs/-111453

43. International Labour Organization. 2021 third-party monitoring of child labour and forced labour during the cotton harvest in Uzbekistan. Geneva: ILO, 2022. ISBN 9789220370605.

44. U.S. Department of State. 2024 Trafficking in Persons Report: Uzbekistan. 2024. Available at: https://www.ecoi.net/en/document/2111789.html

45. Snyder, H. Literature review as a research methodology: An overview and guidelines. Journal of Business Research. 2019;104:333–339. DOI: 10.1016/j.jbusres.2019.07.039

46. NWB Experten-Blog. Update: Änderung des Lieferkettengesetzes im Bundestag [Update: Amendment of the Supply Chain Act in the Bundestag]. 21.01.2026 (in German). Available at: https://www.nwb-experten-blog.de/update-aenderung-des-lieferkettengesetzes-im-bundestag/

47. Tribunal judiciaire de Paris. Fédération des syndicats SUD PTT c. La Poste: décision du 5 décembre 2023 [Paris Judicial Court. SUD PTT v. La Poste: decision of 5 December 2023] (in French). Available at:

https://www.osborneclarke.com/fr/news/plan-de-vigilance-la-decision-du-5-decembre-2023-lencontre-de-la-poste-apporte-des-0

48. European Commission. Uzbekistan joins EU's GSP+ arrangement. 09.04.2021. Available at: https://policy.trade.ec.europa.eu/news/uzbekistan-joins-eus-gsp-arrangement-2021-04-09_en

49. International Labour Organization. ILO welcomes lifting of Cotton Campaign boycott of Uzbekistan. 14.03.2022. Available at: https://www.ilo.org/resource/news/ilo-welcomes-lifting-cotton-campaign-boycott-uzbekistan

50. Crane, A., LeBaron, G., Allain, J., Behbahani, L. Governance gaps in eradicating forced labor: From global to domestic supply chains. Regulation & Governance. 2019;13(1):86–106. DOI: 10.1111/rego.12162

51. Hillman, J., Chen, W., Rowe, L., Sarna, N.H. International forced labor import bans: A case for WTO compatibility. Georgetown Journal of International Law. 2024;55(4). Available at: https://www.law.georgetown.edu/international-law-journal/wp-content/uploads/sites/21/2025/02/GT-GJIL250002.pdf